

YANGI KONSTITUTSIYA–TARAQQIYOT POYDEVORI

Karimov Javohir Qobiljon o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti,

Siyosatshunoslik yo'nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: JavohirKarimovv326@gmail.com

Tel: (99) 990-72-28

www.doi.org/10.5281/zenodo.10457315

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonni bunyod etishda va rivojlantirishda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning roli kattaligi, unga kiritilgan o'zgartirishlar jamiyat va davlat hayotini yangi bosqichga olib chiqishga va Itektual mulk sohasini rivojlantirishga, jamiyat va davlatning, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohada yanada rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi tushuntirilgan va asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi Konstitutsiya, Yangi O'zbekiston, O'zbekistonda Intellektual mulk sohasi, Jahon savdo tashkiloti.

Konstitutsiya har qanday davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. Uning normalari fuqarolarning jamiyat va davlatning talab va ehtiyojlarini qondirishi kerak. Konstitutsiya - barcha qonunlarning negizi bo'lib, fuqarolarning munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. U har bir inson, fuqaroning huquqiy xulqatvorini belgilab beradi. Boshqacha qilib barcha qonunlar normativ huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida tuziladi va unga zid bo'lmasligi kerak. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida belgilangan Konstitutsiyaviy normalarning ijrosini so'zsiz ta'minlash barcha sohalarida "inson qadri"ning tom ma'noda yuksalishiga, davlat va jamiyat hayotini "inson – jamiyat – davlat" degan tizimga asoslangan yangi va zamonaviy tarzda boshqarish imkonini beradi. Shu boisdan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya ijrosini to'liq ta'minlash barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi ekanligi qat'iy belgilab qo'yildi.

Dunyo bozorida intellektual mahsulotlarning narxi ham, qadri ham oshib bormoqda. Bu intellektual mahsulotlar yaqin kelajakda paxta, oltin yoki neftga qaraganda ko'proq foyda keltiradi degani. O'zbekistonda esa intellektual mulkni tijoratlashtirish darajasi juda pastligicha qolmoqda. Bunga asosiy sabab insonlarning intellektual mulkiga bo'lgan huquqni yaxshi bilmasligidan kelib chiqadi va bu holatni yaxshilash maqsadida intellektual mulk huquqini konstitutsiyaviy darajada e'tirof etish zarurligini ko'rsatdi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 53-moddasida har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqiy kafolatlanishi, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi belgilab qo'yildi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi. Inson tomonidan yaratiladigan ijodiy aqliy faoliyat mahsuli hisoblangan intellektual mulk aslida iqtisodiyot rivojlanishining tarkibiy qismlaridan biridir. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida intellektual mulk rivojiga katta e'tibor qaratilgani sababli ularning investitsiyaviy jozibadorligi yaxshilangan, intellektual mulkning ichki yalpi mahsulotdagi ulushi keskin ortgan. Intellektual mulk juda serdaromad yo'nalish hisoblanadi.

Dunyoda "Coca-Cola", "KFC" va "Dodo Pitssa", "Nestle" yoki "Apple" kabi kompaniyalar aynan intellektual mulk ortidan trillion dollardan ortiq daromad oladi. Lekin O'zbekistonda intellektual mulkni tijoratlashtirish darajasi juda past. Bundan esa olimlar, ixtirochilar, tadbirkorlar, yozuvchilar, san'atkorlar va boshqa ijodkorlar jiddiy jabr ko'rmoqda.

O'zbekistonda ham intellektual mulkka nisbatan qiymat sifatida qarash shakllanishi zarur. Hozir O'zbekistonda intellektual mulk mamlakat iqtisodiyotida qancha foizni tashkil etishi, mualliflar qancha daromad olayotgani haqida statistik ma'lumotlar yuritilmaydi.

Yangi Konstitutsiya taraqqiyotning poydevori bo'lib intellektual mulk sohasini yanada takomillashtirish, shu jumladan, tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan zarur shart-sharoitlarni yaratish, intellektual mulkning ishonchli huquqiy himoyasini ta'minlash mamlakatning xalqaro maydondagi imijini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Intellektual mulk himoyasi Jahon savdo tashkilotiga a'zolikning ham muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatlararo savdo qoidalarini boshqarib turuvchi yagona xalqaro tashkilot bo'lgan JSTga a'zo bo'lish jarayoni 8-15 yilni tashkil etadi. O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish uchun 1995 yilda ariza topshirgan bo'lsa ham bu boradagi ijobiy siljishlar 2017 yildan keyingina kuzatila boshlandi.

JSTga a'zolik O'zbekiston iqtisodiyoti uchun katta foyda keltiradi. JSTning o'ziga xos xususiyati shundaki, tashkilot o'z a'zo davlatlarining savdo amaliyotini bosqichma-bosqich erkinlashtirish, raqobat va mamlakatlar o'rtasidagi savdo almashinuvining samaradorligi uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish orqali savdoni rivojlantiradi. JST a'zo davlatlar o'rtasida kamsitilmaydigan savdo-sotiqni ta'minlaydi, savdo amaliyotining shaffofligi va bashorat qilinishini qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek a'zolar o'rtasida yuzaga keladigan savdo nizolarini hal qiladi. Mamlakatlar Jahon savdo tashkilotiga erkin savdo imkoniyatlaridan foydalanish va JSTning nizolarni hal qilishning yaxlit mexanizmidan foydalanish maqsadida qo'shilishadi, bu esa o'z navbatida bizning davlatimizning ushbu tashkilotga a'zo bo'lishining asosiy sabablaridan biridir. Shu sababli, intellektual mulk huquqining konstitutsiyaga kiritilganligi JST a'zo bo'lish uchun tashlangan navbatdagi qadam bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Yangi Konstitutsiyamizga kiritilgan o'zgarishlar insonlarning, jamiyatning va davlatning rivojida muhim ahamiyat kasb etishi, har bir norma jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyada intellektual mulk huquqining tan olinishi va himoya qilinishi ilmiy-ijodiy faoliyatni rag'batlantirishga turtki bo'ladi. Davlat nafaqat intellektual mulk egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini tan oladi, balki himoya qiladi. Shu munosabat bilan muallif yoki huquq egasi yangi intellektual mulk obyektlarini yaratishga qiziqadi, mahalliy tadbirkorlar o'z brendini yaratishga manfaatdor bo'ladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi to'g'risidagi PQ-221-sonli Qarori. 26.04.2022
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan referendum yakunlariga bag'ishlangan uchrashuv. 08.05.2023.